

ISMI FE'LLARNING ARABTILI GRAMMATIKASIDA TUTGAN O'RNI

Imom Al – Buxoriy nomidagi

Toshkent Islom instituti Bakalavr

bosqichi 402-guruh talabasi.

Inomjonov Sardor

Tel: +998951544014

Annotatsiya

Ushbu maqolada arab tili grammatikasining o'ziga xos kalimalaridan biri bo'lgan ismi fe'llarning mohiyati, grammatik xususiyatlari va nutqdagi vazifalari tahlil qilinadi. Ismi fe'llarning ism va fe'l o'rtasidagi oraliq grammatik birlik sifatidagi tabiati, ularning zamon jihatidan tasnifi hamda gap tarkibidagi amaliy qo'llanishi yoritiladi. Shuningdek, Qur'oni karim oyatlari, arab she'riyati va adabiy manbalar asosida ismi fe'llarning balog'aviy ahamiyati, qisqa va lo'nda ifoda etishdagi o'rni hamda hissiy-ta'sirchan ma'no ifodalashdagi xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ismi fe'llarning arab tilining grammatik va uslubiy boyligini namoyon etuvchi muhim mavzulardan ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ismi fe'l, nahv ilmi, balog'at, mabniy so'zlar, Qur'oni Karim, arab she'riyati, buyruq ma'nosi, grammatik birlik, uslubiyat, nutq ta'sirchanligi, iyjozi.

Arab tili inson tafakkurining nozik qirralarini ifodalashda beqiyos imkoniyatlarga ega bo'lgan til hisoblanadi. Uning grammatik tizimi mukammal, va balog'aviy imkoniyatlari esa nihoyatda kengdir. Bu til nafaqat fikrni bayon qilish, balki hissiy kechinmalarni, ruhiy holatlarni va badiiy tasvirlarni eng qisqa, eng ta'sirchan shaklda ifodalash qobiliyatiga ega. Shu jihatdan arab tili boshqa tillardan ajralib turadi.

Nahv ilmi arab tilidagi so'zlarni uch asosiy turkumga – ism, fe'l va harfga ajratadi. Ammo til amaliyotida bu uchlik doirasidan chiqadigan, o'zida bir nechta grammatik

xususiyatni mujassam etgan birliklar ham mavjud. Ana shunday o‘ziga xos hodisalardan biri Ismi Fellar (أَسْمَاءُ الْأَفْعَالِ) dir.

Ismi Fe’llar – bu shaklan ismga o‘xshagan, lekin ma’noda fe’l vazifasini bajaradigan birliklar bo‘lib, ular arab tilining eng nozik va murakkab qatlamlaridan biridir. Bu birliklar nutqda qisqalikni, aniqlikni, keskinlikni va hissiy ta’sirni ta’minlaydi. Shu sababli ular Qur’oni karimda, hadis matnlarida va arab she’riyatida alohida o‘rin egallaydi.

Ismi Fellar orqali arab tili o‘zining eng muhim xususiyatlaridan biri – kam lafz bilan katta ma’no ifodalash qobiliyatini namoyon etadi. Bu esa balog‘atning eng yuksak ko‘rinishidir.

Arab tili Ulamolari Ismi Fe’llarni quyidagicha ta’riflaydilar:

أَسْمَاءُ الْأَفْعَالِ: كَلِمَةٌ تَدُلُّ عَلَى فِعْلٍ مُعَيَّنٍ وَ تَحْمِلُ مَعْنَاهُ وَ زَمَنَهُ وَ عَمَلَهُ وَ هُوَ لَا يُسَمَّى اسْمًا فَحَقًّا.

لَأَنَّهُ لَا تَدُلُّ عَلَى مَعْنَى فِي نَفْسِهِ غَيْرَ مُقْتَرَنٍ بِزَمْنٍ كَمَا لَا يُسَمَّى فِعْلًا فَحَقًّا.

لَأَنَّهُ لَا يَقْبَلُ عَلَامَاتِ الْفِعْلِ وَ هُوَ لَا يَتَأَثَّرُ بِالْعَوَامِلِ.

وَ أَسْمَاءُ الْأَفْعَالِ مَبْنِيَةٌ لَا مَحَلَّ لَهَا مِنَ الْأَعْرَابِ وَ هِيَ تَنْقَسِمُ إِلَى ثَلَاثَةِ أَقْسَامٍ¹.

Asmo al – af’ol : u muayyan bir fe’lga dalolat qiladigan va mazkur fe’lni manosini, zamonini, hamda bajaradigan amalini o‘zida mujassam etgan kalimadur.

U ism dib yuritilmaydi boisi o‘zidagi manoga zomonsiz dalolat qilmaydi.

U fe’l dib ham nomlanmaydi negaki fe’lning alomatlarini qabul qilmaydi shu bilan birga fe’llarga kelib o‘z tasirini o‘tkazadigan omillardan tasirlanmaydi.

Ya’ni bu lafzlar tashqi shakli jihatidan ismga o‘xshaydi, lekin ma’noda fe’lni bildiradi va fe’l kabi amal qiladi. Ushbu ta’rifning o‘zida Ismi Fe’llarning ikki tomonga ham o‘xshashligi mujassam: ular na to‘liq ism, na to‘liq fe’l, balki o‘ziga xos o‘rta qatlamdir.

¹ Abduh Rojhiy, Attatbiqun – nahv, Tanto, Dorus – sahoba, 2 – nashr, 2009 – B. 87.

Ismi fe'llar mabni hisoblanadi e'robdan o'rni yo'q.

Ular zamonga dalolati e'tiboridan uch qismga bulinadi

1.O'tgan zamon fe'liga dalolat qiladigan ismi fe'llar.

هيئات هيئات العقيق و من به و هيئات خُلُّ بالعقيق نواصله

هيئات هيئات لما توعدون

Sizlarga va'da qilingan narsa juda – juda uzoqdir.

شنتان زيد و عمرو

Zayd bilan Amr ayrilishdi.

سرعان بكر

Bakr tezlati.

2.Hozirgi zamon fe'liga dalolat qiladigan ismi fe'llar.

أفِّ لكم و لما تعبدون من دون الله

Sizga ham,Allohni qo'yib ibodat qilayotagn narsalaringizga ham suf – e !

ويكأنه لا يفلح الكافرون

Voajab kofirlar najot topmaydiganga o'xshaydi – ku !².

3.Buyruq fe'liga dalolat qiladigan ismi fe'llar

صه يا علي

Jim bo'1 ey Ali

² Abdul Aziz Mansur.Qur'oni Karim manolarining tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti.2014. – B.395.

آمين يا ربي³.

Ey Robbim ijobat ayla.

حي على الصلاة

Nomozga kel.

هيا إلى الدراسة

O‘qishga shoshil.

هلم إلى الدرس

Darsga yaqin kel.

Bu misollardan ko‘rinadiki, Ismi Fe’llar ko‘pincha buyruq, inkor yoki hissiy holatni ifodalaydi. Eng muhim jihati shundaki, ular butun gap o‘rnini bosa oladi. Birgina “صَة” lafzi orqali butun buyruq ifodalanadi.

Ismi Fe’llarning grammatik tabiati ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ularning eng muhim belgisi – mabniy bo‘lishidir. Ya’ni ular eroblanmaydi, gapdagi o‘rniga qarab o‘zgarmaydi.

Masalan:

صَة، مَه، هَيَّات – har qanday vaziyatda bir xil qoladi.

Bu o‘zgaraslik ularga o‘ziga xos qat’iylik va kuch bag‘ishlaydi. Chunki o‘zgaruvchan shakl ba’zan ma’noni yumshatadi, mabniy shakl esa aksincha, uni qat’iylashtiradi.

Shu bilan birga, Ismi Fe’llar fe‘l kabi amal qiladi. Masalan:

عَلَيْكَ نَفْسَاكَ

³ Ahmad Iskandar, Kayfa tutqinun – nahv, - Qohira, Dorul – lu’lu’a, 7 – nashr, 2022 – B. 93.

Bu jumlada:

عَلَيْكَ – اِسْمُ فِعْلٍ اَمْرٍ مَبْنِيٍّ عَلَيَّ الْفَتْحِ

نَفْسِكَ – مَفْعُولٌ بِهِ مَنصُوبٌ

Bu yerda Ismi Fe'l o'zidan keyin kelgan so'zga ta'sir qilib, uni nasb qiladi. Bu esa uning fe'lga qanchalik yaqinligini ko'rsatadi.

Ismi Fellar arab tilining balog'aviy tizimida alohida o'rin tutadi. Balog'at ilmining asosiy tamoyillaridan biri – الإيجاز qisqa va lo'nda ifodadir. Ismi Fe'llar aynan shu tamoyilning mukammal namunasi.

Masalan:

صَهْ

Bu oddiy so'z quyidagi keng gapga teng:

اِسْكُتْ سَكُوتًا كَامِلًا وَلَا تَتَكَلَّمْ

Ammo Ismi Fe'l orqali bu ma'no ancha keskin, tez va ta'sirchan yetkaziladi. Bu yerda vaqt ham, so'z ham tejaladi, ammo ta'sir kuchayadi.

Ismi Fe'llar ma'no kuchaytirish va ta'kid vazifasini ham bajaradi. Qur'oni karimdagi quyidagi oyat bunga yorqin misoldir:

هَيَّاهَاتِ هَيَّاهَاتِ لِمَا تُوْعِدُونَ.

Sizlarga va'da qilanayotgan narsa juda - juda uzoqdir⁴.

Bu yerda:

هَيَّاهَاتِ – ism fe'l

takror orqali ma'no kuchaygan

⁴ Abdul Aziz Mansur. Qur'oni Karim manolarining tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti. 2014. – B.344.

Bu ifoda oddiy uzoqlik emas, balki umuman amalga oshmaydigan narsani bildiradi. Takror esa bu inkorni yanada keskinlashtiradi.

Qur'onda yana bir muhim misol:

فَلَا تَقُلْ لَهُمَا أُفٍّ

Bu yerda:

أُفٍّ – ism fe'l

inson ichki noroziligini bildiradi

Bu lafz orqali oyat ota-onaga hurmatning eng yuqori darajasini talab qiladi. Hatto ichki bezorilikni bildiruvchi kichik ifoda ham man etiladi.

Arab she'riyatida Ismi Fellar alohida badiiy vosita sifatida ishlatiladi. Ular orqali shoir o'z fikrini kuchliroq, jonliroq va ta'sirchanroq ifodalaydi.

Masalan:

شَتَّانَ هَذَا الْعِنَاقُ وَالنَّوْمُ

وَالْمَشْرَبُ الْبَارِدُ فِي ظِلِّ الدَّوْمِ⁵.

Allohga qasamki, quchoqlashish, uyqu va dum daraxti soyasidagi sovuq ichimlik naqadar bir-biridan farqli va go'zaldir.

Bu yerda shoir ikki xil holatni taqqoslaydi. Bir tomonda rohat, huzur, salqinlik va osoyishtalik; boshqa tomonda esa bundan mahrumlik mavjud.

شَتَّانَ lafzi bu farqni keskinlashtiradi. Shoirning asosiy urg'usi – hayotdagi tafovut, inson orzulari va mavjud imkoniyatlar o'rtasidagi masofaga qaratilgan.

Yana bir mashhur bayt:

⁵ Shayx Muhammad at – Tantoviy, Nash'atun – nahv va Tarixu ashhurun – nuhat, - Qohira, Dorul - ma'orif, 3-nashr, 2005. – B.78.

شَتَّانَ مَا يَوْمِي عَلَى كُورِهَا

وَيَوْمُ حَيَّانَ أَخِي جَابِرٍ⁶.

Allohga qasamki, mening tuyasi ustidagi kunim bilan Joberning ukasi Hayyonning kuni naqadar bir-biridan yiroqdir.

Bu yerda shoir o‘zining og‘ir hayotini boshqaning farovon hayoti bilan taqqoslaydi.

Bu baytda asosiy urg‘u – ijtimoiy tengsizlik, hayotdagi adolatsizlik va insoniy kechinmalarga qaratilgan. “شتان” lafzi orqali bu farq oddiy emas, balki chuqur ruhiy iztirob sifatida ifodalanadi.

Quyidagi hikmatli misralar ham balog‘aviy jihatdan muhim:

بِقَدْرِ الصُّعُودِ يَكُونُ الْهُبُوطُ فَإِيَّاكَ وَالرُّتَبَ الْعَالِيَةَ

وَكُنْ فِي مَكَانٍ إِذَا مَا سَقَطْتَ تَقُومُ وَرَجْلَاكَ فِي عَافِيَةٍ⁷

Ko‘tarilish qanchalik baland bo‘lsa, tushish ham shunchalik qattiq bo‘ladi. Bas, seni baland martabalardan ogohlantiraman. Shunday joyda bo‘lki, agar yiqilsang ham, oyoqlaring omon holda turib ketasan.

Bu misralarda shoir insonni haddan tashqari balandlikka intilishdan ogohlantiradi.

Bu yerda asosiy g‘oya – muvozanat va ehtiyotkorlik. “إِيَّاكَ” orqali ogohlantirish keskin shaklda berilgan. Bu esa nutqning balog‘aviy kuchini oshiradi.

Ismi Fellar hissiy holatlarni ifodalashda ham muhim:

أَفٍّ – bezorlik

أَوْ – og‘riq

⁶ Mannopov Rustambek. Kufa va Basra nahv maktablari o‘rtasidagi ixtiloflar va masalalar tahlili. Bitiruv malakaviy ishi. - Toshkent: 2013. - B.8.

⁷ Abdulloh ibn Muhammad Shibroviiy, Unvonul – bayon, - Qohira, Dorul – ibn Hazm, 2 – nashr, 2015. – B.145.

وَيَ – hayrat yoki ogohlantirish

Bu lafzlar inson qalbiga bevosita ta'sir qiladi. Ular nutqdan ko'ra hissiyotga yaqinroq turadi.

Bundan tashqari, Ismi Fe'llar nutqqa ohangdorlikni beradi. Ularning qisqa va jarangdor shakli she'riyatda alohida o'rin tutadi. Shu sababli ular arab she'riyatida keng qo'llanadi.

Zamonaviy arab tilida ham Ismi Fe'llar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular kundalik nutqda, diniy iboralarda va adabiy matnlarda ishlatiladi. Masalan:

أَمِينٌ – duo

هَلُمَّ – chaqiriq

أُفٍّ – hissiy ifoda

Xulosa

Ismi Fe'llar arab tilining eng nozik va chuqur hodisalaridan biridir. Ular qisqa bo'lsa – da, juda katta ma'nolarni ifodalaydi.

Ular orqali arab tili o'zining asosiy xususiyatini – qisqa va lo'nda ifoda orqali chuqur ma'no berish imkoniyatini namoyon etadi.

Nahviy jihatdan ular ism va fe'l o'rtasidagi ko'priq bo'lsa, balog'aviy jihatdan nutqning eng kuchli vositalaridan biridir.

She'riyatda ular orqali hayotiy tafovutlar, insoniy kechinmalar va falsafiy g'oyalar ifodalanadi. Qur'onda esa ular axloqiy va ruhiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shunday ekan, Ismi Fe'llarni o'rganish arab tilining nafaqat grammatik tizimini, balki uning ichki ruhini, badiiy go'zalligini va ma'no yaratish san'atini anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va O‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasini. – Toshkent: Hilol- nashr, 2018
2. Alouddin Mansur. Qur’oni Azim Muxtasar tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2019.
3. Abdul Aziz Mansur. Qur’oni Karim manolarining tarjimasini. – Toshkent: Toshkent islom universiteti. 2014.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad. Oltin silsila. – Toshkent: Hilol-nashr, 2013. – J.VII.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. .Islom Tarixi 2-kitob. – Toshkent: Hilol Nashr, 2023.
6. Mirqobil Hasanov. Arab tili darslari. – Toshkent: Hilol nashr, 2008.
7. Sun’tulloh Bekpo‘lat. Mabdaul – qiroat. – Toshkent: Navro‘z nashr, 2019.
8. Mahmud Az – zamaxshariy. Unmuzaj. – Toshkent Islom universiteti nashriyot matba’a birlashmasi, 2001.
9. Sunatulloh Bekpulat. Mabdaun – nahv. – Toshkent: Navro‘z nashr, 2006.

Arab tilidagi adabiyotlar:

10. Abdulloh ibn Muhammad Shibrovii. Unvonul – bayon. – Qohira: Dorul – ibn Hazm, 2015.
11. Jamoliddin ibn Hishom. Avzohul – masolik . – Bayrut: Dorud – daqqoq. 2023.
12. Jamoliddin ibn Hishom. Sharhi qotrui - nado va ballus - soda. – Bayrut: Dorud – daqqoq. 2020.
13. Bahouddin ibn abduulloh ibn Aqil. Sharh ibn Aqil. – Qohira: Dorut – Tola’i, 2009.
14. Ahmad Iskandar, Kayfa tutqinun-nahv. – Qohir: Dorul – lu’lu’a, 2022.